



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
O‘ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI HAMDA
YEVROPA VA TURKIY TILLAR KAFEDRASI**



**TASHQI SIYOSIY VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR UCHUN
KADRLAR TAYYORLASHDA TIL TA’LIMI VA TARJIMA MASALALARI**

**(ЯЗЫКОВОЕ ОБУЧЕНИЕ И ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДА ПРИ
ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ ДЛЯ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ И
ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ) MAVZUSIDAGI XVI
AN’ANAVIY ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

TO‘PLAMI

2026-YIL 28-MART

TOSHKENT – 2026

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası hamda Yevropa va turkiy tillar kafedrası tomonidan 2026-yil 28-martda o‘tkazilgan **“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026–yil iyundagi majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami // – Toshkent: JIDU, 2026. – 275 bet.

Mas’ul muharrir:

O‘zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent
Yevropa va turkiy tillar kafedrası mudiri,
dotsenti, f.f.n
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim ofisi boshlig‘i, s.f.n.

M.Abduraxmanova

V.Mamatkasimova

M. Siddiqova

Taqrizchilar:

G.S. Kurbonova – O‘zMU Fransuz filologiyasi kafedrası professori v. b., (DSc)
A.X.Aripova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat–noshirlik guruhi:

Sh. Sh.Xudaykulova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsent v.b., f.f.f.d.(Phd)

Sh. U.Normatova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.



MUNDARIJA

<u>SUN’IY INTELLEKT TIL TA’LIMIDA: CHATGPT IMKONIYATLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING METODIK YO’LLARI</u>	7
SH.U.NORMATOVA (JIDU)	
<u>NEMIS TILI TA’LIMIDA MADANIY KOMPONENTNI RIVOJLANTIRISHDA ADABIYOTNING ROLI</u>	13
G.R.ASATOVA (JIDU)	
<u>МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЮРИСПРУДЕНЦИИ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО ЮРИСТА</u>	19
Н.Э.ШАРИПОВА (УМЭД)	
<u>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IKKINCHI XORIJIIY TILNI O’QITISH SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR</u>	27
K.Q.ISTAMOVA (JIDU)	
<u>O’ZBEKISTONDA CHET ELLIKLARGA TURK TILINI O’QITISH USULLARI VA TA’LIM JARAYONIDA MUAMMOLAR</u>	32
N.SH.XODJAYEVA (JIDU)	
<u>O’ZBEK TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BADIY MATNDAN FOYDALANISHNING YANGICHA USULLARI</u>	43
M.X.SADULLAYEVA (JIDU)	
<u>ADABIYOT DARSLARIDA TABIAT TASVIRIGA OID MATNLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O’QITISH</u>	49
M.F.FOZILOVA (O’zDJTU)	
<u>DIPLOMATIK MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MADANIY RESURLARNI O’RGATISHNING AHAMIYATI</u>	58
M.D.ABDURAXMANOVA (JIDU)	
<u>TALABA–YOSHLARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY USLUB VA MILLIY SHE’RIYATNING O’RNI</u>	64
SH.S.XUDAYKULOVA (JIDU)	
<u>К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО–КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ–МЕЖДУНАРОДНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	70
Г.М.РАХМАТУЛЛАЕВА (УМЭД)	



<u>O'ZGARUVCHI DUNYODA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARI</u>	76
A.X.ARIPOVA (JIDU)	
<u>QADRIYATLAR VOQEALANISHINING DISKURSIV MODEL</u>	83
G.R.KOMILOVA (ToshDO'TAU)	
<u>ЯЗЫКОВАЯ ПОДГОТОВКА КАК ФАКТОР УСПЕХА В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПОЛИТИКЕ</u>	91
A.B.ATABEKOVA (УМЭД)	
<u>LOTIN TILINING DIPLOMATIYA SOHASIDA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI</u>	95
SH.A.XASANOVA (JIDU)	
<u>O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA MILLIY REALIYALARNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI</u>	102
D.D.SAYFULLAYEVA (JIDU)	
<u>ДИСКУРСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	105
B.B. МЯКОТА (УМЭД)	
<u>ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	112
T.D.ПОЛАТОВА (УМЭД)	
<u>СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	120
P.Ш.АБДУМУМИНОВА (УМЭД)	
<u>NEMIS TILI YO'NALISHI TALABALARINING MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID BILIMLARINI BADIY MATNLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI</u>	126
A.P.NARMATOVA (JIDU)	
<u>РОЛЬ ГЛАГОЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ</u>	130
Ю.Б.ЮЛДАШБАЕВА (УМЭД)	
<u>ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLARNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI</u>	134
M.RASULOVA (ToshDO'TAU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA TIL ME'YORI VA VARIANTLILIK</u>	142
M.M.ABIDOVA (O'zMU MAGISTRANTI)	



<u>DAVLAT TILI “YUMSHOQ KUCH” QUROLI SIFATIDA</u>	151
S.D.SALIXOVA (JIDU TALABASI)	
<u>GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA HUQUQIY NEOLOGIZMLAR VA ULARNING QO‘LLANISHI</u>	156
L.M.TURSUNOVA (JIDU TALABASI)	
<u>FERDINAND DYUSHENNING “QAMAR” ROMANINI TARJIMA QILISHDA MADANIY EKVIVALENTLIK MASALALARI</u>	162
V.A.MAMATKASIMOVA (JIDU)	
<u>CHET TILINI O‘QITISHDA “HA” VA “YO‘Q” SO‘Z MA‘NOLARINING BERILISHI XUSUSIDA</u>	167
H.K.IMAMOVA (JIDU)	
<u>INSON TANA TAJRIBASI VA UNING MAQOLLARDA AKS ETISHI</u>	172
Q.N.NAZAROV (JIDU)	
<u>ISPAN TILIDA REKLAMA MATNLARIDA LINGVOKULTURAL KODLARNI O‘RGANISH</u>	180
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>VIRTUAL TA‘LIM MUHITI ASOSIDA ISPAN TILINI O‘QITISHNING INNOVATSION MODELLARI</u>	185
N.K.XAYRULLAYEVA (JIDU)	
<u>ПЕЙОРАТИВНОСТЬ, ВЫРАЖЕННАЯ ПОСРЕДСТВОМ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ</u>	193
M.K.ZARIPOVA (TerGU)	
<u>МОТИВАЦИЯ И ВАЛЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОРЫ РАСШИРЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ «BEHAVIOUR / ПОВЕДЕНИЕ»</u>	199
L.A.ABDULLAEVA (UMED)	
<u>ISPAN TILIDAGI ILMIY MATNLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TERMINOLOGIK MOSLIK VA ANIQLIK</u>	205
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>NAVIGATING THE INTERPLAY OF QUALITY EDUCATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: STRATEGIC IMPERATIVES AND TECHNOLOGICAL INNOVATIONS IN UZBEKISTAN’S PEDAGOGICAL LANDSCAPE</u>	211
N.X.RAXIMOVA, B.A.UMIRZAKOVA (UWED)	
<u>TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL MATN TAHLILI TEXNOLOGIYALARI</u>	216
O.Q.MO‘MINOVA (O‘zDJTU)	



<u>ZAMONAVIY TA’LIM SHAROITIDA O’ZBEK TILINI O’QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</u>	222
F.R.AZIZOVA (JIDU)	
<u>СТОРИТЕЛЛИНГ КАК ФОРМА ЦИФРОВОГО НАРРАТИВА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ</u>	227
A.C.KALBAEV (УМЭД)	
<u>TALABALAR TARJIMA FAOLIYATINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH METODLARI</u>	233
N.F.BABAMURADOVA (O’zDJTU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>SUN’IY INTELLEKT VA YOSHLARNING SIYOSIY ISHTIROKI: RAQAMLI DEMOKRATIYA SHAROITIDA YANGI TENDENSIYALAR</u>	239
S.K.QO’SHIYEVA (УМО’IKTI TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ИНТЕГРАЦИЯ ПОДГОТОВКИ К DELF В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД</u>	247
C.Ю.САЙДАЗИМОВА (УМЭД)	
<u>DONALD J. TRUMPNING INAUGURATSIYA NUTQI: SIYOSIY DISKURS VA TARJIMA STRATEGIYALARI</u>	255
A.R.ABDULLAYEV (JIDU)	
<u>RAQAMLI KORPUS TILSHUNOSLIGI VA SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA O’ZBEK TILI: MILLIY KORPUSNI TAKOMILLASHTIRISH VA SINXRON TARJIMA TEXNOLOGIYALARI</u>	262
SH.J.JAHONOV (JIDU TALABASI)	
<u>РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	269
H.Г. БУКРЕЕВА (УМЭД)	

adabiy, madaniy va ma'rifiy hayotida katta voqea bo'ldi. Bu asar ma'rifatparvarlik g'oyalarini xalq orasiga yoyishga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Xalqimiz bu asarni sevib o'qidi, uning erksevar qahramoni – Qamar a mehr qo'ydi, o'sha yillarda dunyoga kelgan o'zbek qizlari orasida Qamar ismi keng tarqaldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т., 1966.
2. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. – Т., 1980.
3. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: Маънавият, 2004.
4. Эрматов Б.С. Французская реалистичекая новелла XIX века в переводе на узбекский язык. Дисс.кан.филол.наук., – Т., 1991. – С.216.
5. Duchêne Ferdinand. Kamir. Roman d'une femme arabe. –Paris, Albin Michel, 1926.
6. Дюшен Фердинанд. Камир. Перевод с французского Н.А.Макшеевой. – Ленинград, Мысль, 1926.
7. Дюшен Ф. Қамар. –Т.: Маънавият, 1997. – Б.38.

CHET TILINI O'QITISHDA “HA” VA “YO‘Q” SO‘Z MA‘NOLARINING BERILISHI XUSUSIDA

X.K.IMAMOVA (JIDU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk tilida “ha” va “yo‘q” leksik birliklaridagi ifoda shaklining turlari, ularning ma‘no xususiyatlari, qo‘llanilish uslubidagi farqlar haqida fikr yuritiladi. Tasdiq va inkorning lingvistik ko‘rsatkichlar yordamida va ohang orqali berilishidagi o‘ziga xoslik ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Turk tili, tasdiq, inkor, lingvistik ko‘rsatkich, ohang.

Har bir sohaga yangilik kiritish zamon talabi. Zamonaviy innovatsiyon texnologiyalar bugungi kunda jamiyatninig barcha tarmoqlari uchun keng joriy qilinmoqda. Ishlab chiqarish, fan, madaniyat va ta’limning barcha sohalari shular jumlasidandir.

Xalqaro munosabatlar fakultetida ta’lim olayotgan talabalarga xorijiy tilni o’qitishda smart–texnologiyalar, interaktiv vositalar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt tizimlari kabi (Yusupov, 2025: 180-181) vositalardan foydalanish mumkin. Ammo bu texnologiyalar o’qitilayotgan tilning ruhini berolmaydi. Tilning ruhiyatini autentik matnlarda yoki til egalarining nutqida kuzatish mumkin.

Ushbu maqolada talabalarga xorijiy tilni o’qitishda e’tibor qaratilishi muhim bo’lgan jihat bu tilning ruhiyatidagi o’ziga xoslikni yoritishdan iborat bo’ladi. Sababi, bir oilaga mansub tillarning o’ziga xos tomoni shu ruhiyatda kuzatiladi.

Mavzuni yoritishda tilshunoslikga doir nazariy manbalar [Ирискулов, 1992: 36; Шоабдурахмонов, 1980: 434; Şimşek, 2018: 1389-1401; Baran, 2017: 1306–1315], lug’atlar, badiiy asarlar va til egalari bilan bo’lgan suhbatlar, talabalarga til o’rgatishdagi kuzatishlar [Bölükbaş, 2023: 32] asos qilib olindi.

Turk tili bilamizki turkiy tillar oilasiga mansub. O’quvchilarimiz asosan ona tili o’zbek tili bo’lgan talabalardan iborat. Shu sababli o’quvchilarga turk tili ham yaqin va ayni paytda notanish. Yaqinligi bir til oilasiga mansubligi yuqorida ta’kidlandi. Notanishligi mental xususiyatlardagi farqlardan tashkil topadi. Har ikki tilda ham fikrni muloqotda ifodalashda ikki xil omil mavjur: lingvistik va paralingvistik. Lingvistik omillar bu – so’zlardir; *ha – evet, mayli – olur, hop – tamam, bo’ladi – tabii, mumkin – mümkün, kerak – gerek, albatta – elbette x’yo’q – hayır, bo’lmaydi– olmaz, mumkin emas – mümkün değil, kerak emas – gerek değil* kabi.



Bundan tashqari nutqdagi mana shu “*ha*” va “*yo’q*” so’z ma’nolarini lingvistik atama bo’lgan “*tasdiq*” va “*inkor*” shaklida xar xil tarzda ifoda etish kuzatiladi: *Ha, ha bo’ladi, albatta bo’ladi, tabiiy o’z-o’ziadan, tabiiy bo’ladi, albatta bo’ladi nega bo’lmasin x evet, evet olur, tabii olur, tabii tabii, tabii olur niye olmasin, elbette olur niye olmasin* kabi. Bu adresat va adresant orasidagi suhbatning mavzusidagi yechim bilan bog’lanadi.

Ko’rsatilgan va yig’ilgan misollar miqdor jihatidan har ikki tilda son jihatdan bir xil. Tuzilish jihatidan ham bir-biriga yaqin. Ularni *tasdiq* va *inkor* ma’nosi jihatidan 3 turga ajratish mumkin: **oddiy** – *ha = evet*, **o’rta** – *ha, bo’ladi = evet olur, ha mumkin = evet mumkin* va **kuchaytirilgan** – *albatta bo’ladi, tabiiy o’z-o’ziadan, tabiiy bo’ladi, albatta bo’ladi nega bo’lmasin = tabii olur, tabii tabii, tabii olur niye olmasin, elbette olur niye olmasin* kabi shakllar.

M’sollardan ko’rinadiki tasdiq va inkorning ma’no turiga ko’ra uch xil bo’lib, *kuchaytirilgan tasdiqni* ifodalovchi birliklar son jihatdan ancha ko’pligi bilan boshqa turga qaraganda ajralib turibdi. Yana ularning mazmunida tasdiq va inkorni *aniq ifodalash, shubha bilan ifodalashga* ham ajratish mumkin: *balki, bo’lishi mumkin = belki, olabilir x bo’lishi mumkin emas = olmasi mumkin degil* kabi.

Tuzilishiga ko’ra tasdiq va inkorni ifodalovchi birliklar ham uchga ajraladi. Bular; *so’z holidagi birlik, so’z birikmasi holatidagi birlik va gap holatidagi birlik* kabi. Etimologiyasiga ko’ra turkiy so’zlar bilan birga arab tilidan o’zlashgan so’zlar har ikki o’zbek va turk tillarida kuzatiladi.

Çocuk: Anne, parka gidebilir miyim?

Anne: Hava bugün çok serin (so’zlashuvda).

Agar shu misol intonatsiya yani kuchaqtirilgan ohang bilan ifodalansa *keskin* bir shakldagi ‘yo’q’ ma’nosi qo’shiladi. Agar intonatsiyasiz ifodalansa *keskin* bir shakldagi ‘yo’q’ ma’nosi o’rniga ‘o’ylab ko’r, shu holatda parkga

borishga arziydimi’ degan shubha, yoki taraddutni bildirish kabi qiziq mazmun beriladi. Shubha va taraddut bildirilganda tanlov yoki ihtiyor adresantda qoladi. Bunday ifoda shakllaridagi kontekst faqat insonga xos bo’lib, yangi texnologiya orqali berish mumkin emas. Qiziq jihati misolda aniq tasdiq va inkorni ifodalovchi lingvistik ko’rsatkich yo’q. Ammo matn mazmunida bu ma’no yashiringan.

Çocuk: Ev çok büyük.

Anne: Aynı zamanda güzel(so’zlashuvda).

Gapda tasdiq va inkorni ifodalovchi aniq ko’rsatkichlar berilmaydi. Ularda gapning mazmunidagi tasdiq va inkor nazarda tutiladi. Bunday ifoda shakllarini xalqaro munosabatlardagi suhbatlarda ko’p uchratish mumkin.

Ma’lumki, talabalarga chet tilini o’qitishda tasdiq ve inkorning berilishida o’ziga xoslik bo’lishi zarur. Sababi, tasdiq va inkor orqali juda ko’p ma’no ifodalanishi mumkin. Bular: *tasdiqni to’la aks ettirish, tasdiqni qisman ifoda etish* yoki *tasdiqni shubha bilan ifodash* kabi. Inkor ham xuddi shunday shaklda *to’la, qisman va shubha bilan* berilishi mumkin.

Yana tasdiq va inkorni ifodalovchi shunday til birliklari borki, ular ko’proq rasmiylik, jiddiylik ottenkasiga ega: *albatta, mutloqo = muhakkak, mutlaka x aslo, hech qachon, qat’iy ravishda = asla, kesinlikle, katiyen* kabi. Rasmiy *tasdiq= onay, inkor = red* ma’nolarini ifodalashda ko’plab so’z birikmalari ham ishlatiladi: *qabul qilmoq, ma’qul ko’rmoq = kabul etmek, uygun görmek, tasdik etmek* [T.S-1110] *x rad qilish, qabul qilmaslik = red etmek, geri çevirmek* [T.S-1217] kabi.

Toplantı teklifi onayladı / Toplantı teklifi reddeti (so’zlashuvda).

Yuqoridagi misolda taklif rasman qabul qilingani va rad etilgani aniq leksik birliklarda ifoda etilmoqda. Ammo shunday ifoda shakllari ham bor, ulardagi ma’lum ko’rsatkichlarni nazardan qochirmaslik talab etiladi:

Uluslararası ilişkilerde böyle bir durum uygun görülmez (so’zlashuvda).

Umuman har qanday ifoda shakllarida u rasmiy yoki norasmiy, og’zaki yoki yozma bo’lsin inkorni ifodalovchi lingvistik birliklar tasdiqni ifodalovchi birliklarga qaraganda son jihatdan kamligini ko’rish mumkin. Yoki inkor ma’nosi tasdiqni ifodalovchi so’zlarga –ma bo’lishsizlik qo’shimchasini qo’shish orqali yasalgani kuzatiladi. Buninig sababi inkorni ifodalovchi so’zlardagi keskin inkor ‘yo’q’ ma’nosini yumshoqlik bilan yetkazishda bo’lsa kerak.

Uluslararası sistemde istikrarsızlığa neden olduğu için hoş karşılanmaz (so’zlashuvda).

Yuqoridagi misolarda ko’rinadiki, inkor ma’nosi tasdiqni ifodalovchi birliklarga bo’lishsizlik qo’shimchasini qo’shish orqali yasalmogda. Qat’iy inkor ma’nosini ifodalovchi birliklarning ishlatilishidan chekinish yoki inkor ma’nosini yumshatib yetkazish holati kuzatiladi. Aynan mana shu ifoda diplomatik munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o’rnida aytish mumkin, “ha” va “yo’q” so’z ma’nolarini lingvistik atama bo’lgan “tasdiq” va “inkor” shaklida ifodalash mumkin. Lingvistik ko’rsatkichlar yordamida va lingvistik ko’rsatkichlarsiz ohang orqali. Lingvistik ko’rsatkichlar orqali ifodalashga qaraganda lingvistik ko’rsatkichlarsiz ifodalash o’ziga xos bo’lib uni ilg’ab olish uchun sergaklik talab etiladi.

Talabalarga xorijiy til o’qitilishida ifodaninig mana shunday nozik jihatlariga e’tibor qaratilishi zarur. Shunda talaba kelgusida har qanday davrada fikrlarini chiroyli ifoda etish bilan birga ishidagi yechimlarga yengil yo’l topadi va hal qilishda qiyinchilikga duch kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ирискулов М. *Тилшуносликка кириш*. “Ўқитувчи”, Тошкент – 1992. – 255 В.

2. Yusupov E. *Zamonaviy texnologiyalar turlari va ularning ta’limdagi o’rni. “Yosh matematiklarning yangi teoremlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani*, 23–24–may, 2025. 180–181 betlar.
3. Ş.Şimşek, K.Coşkun, *Türkçe Ders Kitaplarında Kabul ve Ret Bildiren İfadeler. Journal of Turkish Studies* 13(27): s.1389–1401, 2018
DOI: [10.7827/TurkishStudies.14502](https://doi.org/10.7827/TurkishStudies.14502)
4. B.Baran, *Yanıt Ğfade Eden Evet, Hayır ve Benzeri Sözcükler Üzerine. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi*, 6(3), 2017, s.1306–1315.
5. *Türkçe Sözlük 2.* – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi, 1988.; 2.–K–Z – 1679 s.
6. Шоабдурахмонов III. ва б.қ., *Ҳозирги ўзбек адабий тили. “Ўқитувчи”*, Тошкент – 1980, –447 В.
7. F.Bölükbaş v.b., *Yeni İstanbul Uluslararası Öğrenciler için Türkçe Ders Kitabı A 1*, Kültür Sanat Basımevi, İstanbul, 2023.

INSON TANA TAJRIBASI VA UNING MAQOLLARDA AKS ETISHI

Q.N.NAZAROV (JIDU)

Annotatsiya: Mazkur maqolada kognitiv tilshunoslik doirasida tanaviylik tushunchasi hamda uning maqollar shakllanishidagi o’rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda insonning olamni idrok etishi, tajriba orttirishi va bu tajribaning til birliklarida, ayniqsa, somatik maqollarda aks etishi yoritilgan. Tana va olam o’rtasidagi munosabat sezgi, idrok, tafakkur hamda amaliy faoliyat asosida izohlanib, tanaviy tajribaning konseptual tizimlarni shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so’zlar: tana tajribasi, maqol, tajriba, sezgi, idrok, tafakkur, faoliyat, konseptual metafora.